



ISSN: 2181-9416

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТИНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOIIY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

YURIST AXBOROTNOMASI

5-SON, 7-JILD

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 5, ВЫПУСК 7

LAWYER HERALD

VOLUME 7, ISSUE 5



AXMEDOV Dilshod BaxromovichO'zbekiston Respublikasi Bosh
prokuratura boshqarma boshlig'i,
O'zbekiston Respublikasi Huquqni
muhofaza qilish akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi

MA'MURIY SUDDA DASTLABKI ESHITUV INSTITUTINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): AXMEDOV D. B. Ma'muriy sud da dastlabki eshituv institutini joriy etish // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 5 (2024) B. 35-44.

5 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ma'muriy sud ishlarini yuritishda joriy etilayotgan dastlabki eshituv institutining huquqiy mohiyati, vazifalari va amaldagi ahamiyati tahlil etilgan. Yangi protsessual bosqich sifatida dastlabki eshituv sudya va taraflarga asosiy muhokamagacha ishni tayyorlash, e'tirozlarni aniqlashtirish, dalillarni yig'ish hamda protsessual kamchiliklarni bartaraf etish imkoniyatini beradi. Maqolada mazkur institutning joriy etilishi ishlarni tezkor, sifatli va adolatli ko'rib chiqish, fuqarolarning huquqlarini himoya qilish uchun qo'shimcha huquqiy kafolatlar yaratishi ta'kidlanadi. Rossiya Federatsiyasi va rivojlangan Yevropa davlatlari (Germaniya, Fransiya) tajribalari qiyosiy tahlil qilingan holda, O'zbekistonda joriy etilayotgan yangi tartibning xalqaro standartlarga uyg'unligi asoslab berilgan. Ilmiy yangilik sifatida dastlabki eshituvning milliy ma'muriy sud tizimida ishlarning tezkor hal etilishi, sud yuklamasini kamaytirish va protsessual adolatni ta'minlashdagi amaliy ahamiyati asoslab berilgan. Muallif ushbu institutning joriy etilishi fuqarolarning sud orqali himoya huquqini amaliy jihatdan mustahkamlashi va ma'muriy adolat samaradorligini oshirishini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: dastlabki eshituv, ma'muriy sud, protsessual institut, fuqarolar huquqi, odil sudlov, dalillarni to'plash, davlat organi vakolati, taraflarning tengligi, xalqaro tajriba, qiyosiy tahlil.

АХМЕДОВ Дилшод БахромовичНачальник управления Генеральной прокуратуры
Республики Узбекистан, самостоятельный соискатель
Правоохранительной академии Республики Узбекистан

ПЕРСПЕКТИВЫ ВНЕДРЕНИЯ ИНСТИТУТА ПРЕДВАРИТЕЛЬНОГО СУДЕБНОГО ЗАСЕДАНИЯ В АДМИНИСТРАТИВНОМ СУДОПРОИЗВОДСТВЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются правовая природа, задачи и практическая значимость внедряемого в административное судопроизводство института предварительного судебного заседания. Как новый процессуальный этап, предварительное заседание предоставляет судье и сторонам возможность до основного разбирательства подготовить дело, уточнить возражения, собрать доказательства и устранить процессуальные недостатки. Подчеркивается, что введение данного института обеспечивает более оперативное, качественное и справедливое рассмотрение

дел, а также создаёт дополнительные правовые гарантии защиты прав граждан. На основе сравнительного анализа рассматривается опыт Российской Федерации и развитых европейских государств (Германия, Франция), обосновывается соответствие внедряемого в Узбекистане порядка международным стандартам. В качестве научной новизны показана практическая роль предварительного заседания в ускорении разрешения дел в национальной системе административного судопроизводства, снижении нагрузки на суды и обеспечении процессуальной справедливости. Автор отмечает, что внедрение данного института укрепляет практическое осуществление права граждан на судебную защиту и повышает эффективность административного правосудия.

Ключевые слова: предварительное слушание, административный суд, процессуальный институт, права граждан, правосудие, сбор доказательств, полномочия государственного органа, равенство сторон, международная практика, сравнительный анализ.

AKHMEDOV Dilshod Bahromovich

Head of Department of the General Prosecutor's Office
of the Republic of Uzbekistan, Independent researcher at the
Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

PROSPECTS FOR THE INTRODUCTION OF THE PRELIMINARY HEARING INSTITUTION IN ADMINISTRATIVE PROCEEDINGS

ANNOTATION

This article analyzes the legal essence, functions, and practical significance of the preliminary hearing institution introduced in administrative court proceedings. As a new procedural stage, the preliminary hearing provides judges and parties with the opportunity to prepare the case for the main hearing, clarify objections, collect evidence, and eliminate procedural shortcomings. The article emphasizes that the implementation of this institution contributes to the prompt, efficient, and fair consideration of cases and establishes additional legal guarantees for the protection of citizens' rights. Through a comparative analysis of the experiences of the Russian Federation and developed European countries (Germany and France), the conformity of the newly introduced procedure in Uzbekistan with international standards is substantiated. As a scientific novelty, the study demonstrates the practical importance of the preliminary hearing in expediting case resolution, reducing the judicial workload, and ensuring procedural justice within the national administrative court system. The author concludes that the introduction of this institution will strengthen, in practical terms, citizens' right to judicial protection and enhance the effectiveness of administrative justice.

Keywords: preliminary hearing, administrative court, procedural institution, citizens' rights, fair trial, evidence collection, authority of state body, equality of parties, international experience, comparative analysis.

O'zbekiston Respublikasida shaxslarning odil sudlovga bo'lgan huquqlarini to'liq amalga oshirilishini ta'minlash, ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi nizolarni hal etishda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, ma'muriy nizolarni hal qilishda ma'muriy protsessual mexanizmlarini yanada takomillashtirish, ishning taalluqliligini belgilashda sud va ma'muriy organlar vakolatlarining chegarasini to'g'ri belgilash, dastlabki eshituv institutini takomillashtirish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Shu boisdan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi" [1] deb, belgilab qo'yilgan.

E'tirof etish joizki, Respublikamizda fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini kafolatli himoya qilish maqsadida qonunchilik hujjatlari xalqaro andozalarga mos ravishda takomillashtirilib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4850-sonli Farmoniga [2] ko'ra, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini, fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlash, shuningdek odil sudlovga erishish darajasini oshirish sud-huquq tizimini yanada isloh qilish sohasida davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni [3] bilan tasdiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish hamda fuqarolarning odil sudlovga erishish darajasini oshirishda dolzarb chora-tadbirlar qayd etilgan.

Islohotlar natijasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi "Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3723-sonli Qarori [4] bilan protsessual qonunchilikka dastlabki eshituv instituti kirib keldi.

Keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini sud orqali himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-33-sonli Qarori [5] bilan ma'muriy protsessual qonunchiligida ham dastlabki eshituv institutini joriy etish nazarda tutildi.

Ma'muriy sud ishlarini yuritishda dastlabki eshituv (preliminary hearing) – yangi joriy etilayotgan protsessual institut bo'lib, unda ishning asosiy muhokamasigacha sudya va taraflar alohida majlisda uchrashib, e'tirozlarni aniqlashtiradilar, dalillarni taqdim etish hamda protsessual masalalarni hal qilish bilan shug'ullanadilar. Dastlabki eshituv bosqichi ma'muriy ishni tezkor, sifatli va adolatli ko'rib chiqishga xizmat qiladi, shuningdek fuqarolarning huquqlarini himoya qilish uchun qo'shimcha huquqiy imkoniyatlar yaratadi.

M.A.Vereshagina [6], V.A.Azarov va I.Yu.Tarichkoning [7] fikricha, "dastlabki eshituv bosqichi sud majlisiga tayyorgarlik vakolatlarini huquqiy tartibga solishdir".

M.O.Borozdina va Ye.G.Tulisova fikricha, "dastlabki eshituv bosqichi bu sudyaning ishni sud muhokamasiga tayyorlash bo'yicha ixtiyoriy harakatlaridan biri hisoblanadi" [8]. G.D.Uletova "uni turli huquq sohalari uchun umumiy bo'lgan tarmoqlararo institut sifatida baholaydi" [8].

A.G.Pleshanov esa "dastlabki eshituv instituti sud majlisini ishni sud muhokamasiga tayyorlashning yakunlovchi bosqichi sifatida, shuningdek taraflar nuqtayi nazaridan eng muhim protsessual masalalarni hal etish uchun mo'ljallangan maxsus tartib deb hisoblaydi. Uning fikricha, bu bosqich taraflarga o'z huquqlarini amalga oshirish uchun yetarli protsessual kafolatlar yaratadi, ishni muhokamaga tayyorlash vazifalarini bajaradi va adolatni ta'minlashda vaqt hamda resurslarni tejaydi" [9].

Jinoyat protsessual huquqi sohasida ham turli tadqiqotlar olib borgan milliy olimlar ham o'z tadqiqotlarida dastlabki eshituv institutini mustaqil sud bosqichida sifatida baholab, ishni sud muhokamasiga tayyorlov bosqichi sifatida baholaydi [10].

Nazarimizda olimlar to'g'ri ta'kidlaganidek, dastlabki eshituv instituti sudgacha tayyorlov bosqichi jarayoni bo'lib, unda sud protsessida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolarni bartaraf etish va oldini olish uchun samarali vositalardan biri hisoblanadi.

Bu borada D.I.Zakirovaning "protsessual qonunchilikda taraflarning ixtiyoriy huquqlarini mustahkamlash masalasini dastlabki eshituv majlisida ko'rib chiqish ularga protsessual harakatlarni amalga oshirish va buzilgan huquqlarni tiklash uchun qo'shimcha kafolatlar berilishi bilan bog'liq.

Shu bilan birga, ishni tayyorlash bosqichiga kirib kelgan sud muhokamasi elementlari dastlabki eshituv sud majlisida amaliy ifodasini topib, taraflarning ixtiyoriy huquqlarini barcha ishtirokchilar fikrini inobatga olgan holda ko'rib chiqish va ularning bayonotlarining qonuniyligini tekshirish imkonini beradi" degan fikrlariga qo'shilish mumkin [8].

Bizningcha, ma'muriy sud ishlarini yuritishda dastlabki eshituv instituti ma'muriy sud ishida asosiy sud muhokamasidan oldin o'tkaziladigan tayyorlov bosqichidir. Uning asosiy vazifasi taraflar o'rtasidagi bahs doirasini oldindan aniqlash va ishni to'liq muhokamaga tayyorlashdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini sud orqali himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-33-sonli Qaroriga muvofiq [5], dastlabki eshituvda arizachining talabi va javobgarining e'tirozi rasman belgilab olinadi, arizadagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun zarur choralar ko'riladi. Sudya shu bosqichda ariza predmeti va dalillarga dastlabki huquqiy baho beradi. Masalan, talablarni aniqlashtiradi, ishga aloqador bo'lmagan taraflarni chiqarib tashlaydi yoki zarur bo'lsa, qo'shimcha javobgarlarni jalb qiladi. Bunda sudya ishni mazmunan hal etishga doir yakuniy xulosa qilmaydi, ya'ni dastlabki eshituv faqat tayyorlov xarakteriga ega.

Dastlabki eshituvning maqsadlari xorijiy davlatlar qonunchiligida aniq bayon etilgan. Masalan, Rossiya Federatsiyasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksida [11] (KAS RF) bu bosqichning beshta asosiy maqsadi sanab o'tilgan: ishni to'g'ri hal etish uchun muhim holatlar va bahsli masalalarni aniqlash; ish bo'yicha dalillarning yetarli-yetarli emasligini belgilash; da'vo arizasi berish muddatlari buzilgan-buzilmaganini aniqlash; taraflar tomonidan ishni muhokamaga tayyorlash davomida amalga oshirilgan protsessual harakatlarni "muhrab qo'yish", ya'ni rasman qayd etish; asosiy sud muhokamasiga o'tmasdan turib mojaroni hal etish yoki yarashib olish imkoni bor-yo'qligini tekshirish.

Ko'rinib turibdiki, dastlabki eshituv orqali sudya ishga doir barcha tashkiliy va huquqiy masalalarni hal qilib, sud muhokamasiga faqat aniqlangan, tayyor holdagi nizoni olib o'tadi.

Dastlabki eshituv odatda yakka tartibda (yagona sudya tomonidan) o'tkaziladi va unda taraflar hamda ishlarda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga teng ravishda o'z fikr va dalillarini bayon etish imkoniyati beriladi. Ma'muriy protsessual qonunchilikda belgilanadigan yangi qoidaga muvofiq, ma'muriy sudda dastlabki eshituv ariza sudga kelib tushganidan keyin 20 kun ichida o'tkazilishi shart va bu muddat asosiy sud muhokamasi uchun belgilangan umumiy muddatga hisoblanmaydi. Dastlabki eshituv yakunlari bo'yicha sudya ajrim chiqaradi: unga ko'ra, yo ish bo'yicha sud muhokamasiga tayinlanadi (ya'ni ish to'liq muhokamaga o'tadi), yoki protsessual kamchiliklar tufayli ariza qaytarilishi mumkin. Shunday qilib, dastlabki eshituv ishning asosiy hal etilishigacha bo'lgan "filtr" va tayyorlov bosqichi sifatida namoyon bo'ladi.

Dastlabki eshituv institutining joriy etilishi ma'muriy sud ishlarini ko'rish samaradorligini oshiradi. Avvalo, barcha zarur protsessual masalalarni alohida bosqichda hal etish orqali asosiy sud muhokamasi tezroq va samarali tarzda o'tadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini sud orqali himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-33-sonli Qarorida [5] bu institut ishlarni tezkor va sifatli ko'rib chiqilishini ta'minlash maqsadida kiritilayotgani ta'kidlangan. Ya'ni, dastlabki eshituv orqali ish nihoyasiga yetguncha keyinga qoldirilishiga sabab bo'ladigan kamchiliklar bartaraf etiladi, tortishuvlar doirasi cheklanadi va dalillar to'planadi. Masalan, agar arizada kamchiliklar bo'lsa yoki ariza mazmuni noaniq bo'lsa, bu holatlar dastlabki eshituvdayoq aniqlanib, tuzatib ketiladi. Bu esa keyinchalik bir necha marta sud majlisini kechiktirib o'tkazishga zarurat qoldirmaydi.

Bu institutning joriy etilishi sud amaliyotida dastlabki eshituv kabi mexanizmlar ortiqcha sarsongarchilikning oldini oladi. Masalan, O'zbekistonda jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda dastlabki eshituv joriy etilgunigacha ba'zi ishlarda bir necha oylik muhokamadan so'ng ishni qayta tergovga yuborish holatlari kuzatilgan. Ayni shu muammoni hal etish uchun jinoyat protsessual qonunida dastlabki eshituv joriy etilib, endilikda sudya ishni muhokamaga tayinlash jarayonida 7 kun ichida tahlil qilib, kamchilik aniqlansa tegishli qaror chiqara oladi. Ma'muriy sudlarda ham yangi institut shunga o'xshash samara berishi kutilmoqda. Sudya 20 kunlik dastlabki bosqichda ishni puxta tayyorlab, agar hal etishga to'sqinlik qiladigan holat bo'lsa, uni bartaraf etadi yoki ish yuritishni to'xtatadi. Shu tariqa, ishning umumiy ko'rilish muddati qisqaradi va ortiqcha protsessual sarsongarchiliklar kamayadi.

Bundan tashqari, dastlabki eshituv ma'muriy organ va mansabdor shaxslarning mas'uliyatini oshiradi, shu orqali jarayonni tezkor ko'rib chiqish imkonini beradi. Yangi tartibga ko'ra, fuqarolar davlat organi qarori yoki harakati ustidan bergan har qanday shikoyatda o'sha organing mansabdori (yoki vakolatli vakili) sud majlisida ishtirok etishi shart etib belgilandi. Agar mas'ul shaxs asossiz ravishda kelmasa, sud tomonidan jarima qo'llanilishi mumkin. Bu talab amaliy jihatdan shuni anglatadiki, davlat organi ishni cho'zib yubormasligi, o'z vaqtida sudga hozir bo'lib, zarur tushuntirishlarni berishi talab etiladi. Natijada, davlat tomonidan kechiktirish yoki hamkorlik qilmaslik orqali sud ishlarini asossiz uzaytirish holatlari qisqaradi. Dastlabki eshituvda mansabdor shaxsning shaxsan ishtirok etishi esa ishni tezroq, mazmunan hal etishga xizmat qiladi, chunki barcha ma'lumotlar ilk bosqichdayoq to'planadi va aniqlik kiritiladi.

Dastlabki eshituv instituti fuqarolarning suddagi huquqiy kafolatlarini mustahkamlaydi. Birinchidan, mazkur bosqich fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga o'z huquqlarini himoya qilish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi deb belgilangan. Amalda bu nima degani? Agar arizachi (fuqaro yoki tadbirkor) shikoyatini tayyorlashda ba'zi huquqiy yoki texnik kamchilikka yo'l qo'yan bo'lsa, sud buni dastlabki eshituvda ko'rsatib o'tadi va uni to'g'irlash imkoniyatini beradi. Masalan, ariza matnida aniqlik yetishmasa, hujjatlar to'liq bo'lmasa yoki ariza kimga qaratilgani noto'g'ri belgilangan bo'lsa, sudya hujjatlarni to'ldirish, arizani tahrirlash yoki taraflarni almashtirish yuzasidan ko'rsatma beradi. Shu tarzda, arizachining huquqi himoya qilinishiga yordam beradi hamda fuqaroga o'z talabini to'g'ri bayon etish va isbotlash uchun tushuncha hamda muhlat beriladi.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish kodeksida (keyingi o'rinlarda MSIYUtK deb ataladi) belgilangan prinsiplar asosida arizachi va javobgar o'z pozitsiyasini bayon qilish imkoniga ega bo'ladi, bir-birining dalil va e'tirozlari bilan tanishadi. Javobgar davlat organi yoki mansabdor shaxs bo'lgan ma'muriy nizolarda, ayniqsa, dastlabki eshituvda javobgardan yozma fikr talab qilinib, uni taqdim etish bo'yicha topshiriq berilishi nazarda tutiladi.

Demak, fuqaro birinchi muhokamada davlat organining o'z qilmishi bo'yicha rasmiy izohini olish huquqiga ega bo'ladi. Bu esa taraflarga to'la ma'lumotli holda bahslashish imkonini yaratadi. Taraflarning teng axborotga ega bo'lishi va o'z dalillarini taqdim etib, muhokamaga kirisha olishi protsessual adolatning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Shuni ta'kidlash joizki, yangi tartib fuqarolar manfaatini himoyalashda sudning faol ishtirok etishi prinsipiga tayangan [12]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini sud orqali himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-33-sonli Qarorining [5] konseptual qismida sud organlari fuqarolar buzilgan huquqlarini tiklashda faollik ko'rsatishi lozimligi, ya'ni passiv kuzatuvchi emas, balki adolatga erishishga yo'naltiruvchi kuch sifatida ish tutishi ta'kidlangan. Dastlabki eshituv aynan sudyaning bunday faol rolini amalda namoyon etadi: sudya taraflarga qanday dalillar kerakligini tushuntirib beradi, ishning mohiyatini

to'g'ri anglab olishlari uchun yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Shu bilan birga, u xolisligini saqlagan holda fuqaroning o'z haq-huquqini samarali talab qilishiga ko'maklashadi. Bu, albatta, fuqarolar uchun qo'shimcha huquqiy kafolat hisoblanib, sud protsessining formal qoidalarida adashmasdan, ariza talabi yuzasidan adolatni ta'minlash imkonini beradi. Bu orqali esa MSiyUKning 11-moddasida belgilangan sudning faol ishtiroki prinsipning amalda ro'yobga chiqarilishini ta'minlaydi.

Ma'muriy sudlar faoliyatida ish hajmi va yuklamasini optimal tarzda boshqarish dolzarb masala hisoblanadi. Dastlabki eshituv instituti bu borada ham ahamiyatli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Eng avvalo, ushbu bosqich sudlarni ortiqcha ish hajmidan saqlaydi. Ilgari ma'muriy nizolarda arizadagi kamchiliklar yoki protsessual talablarga muvofiq emasligi ko'pincha asosiy muhokama vaqtida ayon bo'lib, sud ishni ko'rishni to'xtatib, hujjatni qaytarishga majbur bo'lar edi. Endi esa bunday holatlar 20 kunlik dastlabki bosqichda hal etiladi, ya'ni arizada kamchilik bor-yoqligi, taraflar to'g'ri jalb qilinganligi, muhokama uchun barcha zarur dalillar jamlanganligi va boshqa holatlar oldindan tekshiriladi. Agar jiddiy kamchilik aniqlansa, ishni asosiy tartibda ko'rib chiqishga o'tmasdan turib, arizani qaytarish yoki ish yuritishni tugatish haqida hal qiluv qaror chiqariladi. Natijada sudyalarning vaqtini tejash imkoniyatiga ega bo'ladi.

S.N.Esanaliyev o'z tadqiqotlarida bu institutning ijobiy jihatlari haqida to'xtalib, "bu sudlarning ish yuklamasi kamayishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini, protsess ishtirokchilarining ortiqcha vaqt va resurslarining tejashiga olib kelishini, dastlabki eshituv bosqichida ish jarayoniga aniqlik kiritilishini ko'rsatib o'tadi" [13].

Dastlabki eshituv instituti sud muhokamasiga tayyorgarlikni tashkil etish jarayoni sifatida sudya dastlabki majlisida ish qanday yo'nalishda ketishi, qaysi masalalar e'tibor markazida bo'lishi lozimligini belgilab beradi. Masalan, Rossiya Federatsiyasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksida (KAS RF) sudya dastlabki bosqichda ishni to'liq ko'rishga tayyor deb topsa, ba'zi hollarda o'sha muhokamaning o'zida asosiy muhokamani ochishi ham mumkinligi belgilangan [11]. O'zbekiston qonunchiligida hozircha dastlabki eshituv yakunida alohida ajrim chiqarib, keyinroq asosiy sud muhokamasi tayinlanishi nazarda tutilmoqda. Lekin har ikki holatda ham, asosiy muhokamaga o'tilguncha sudya barcha rejalashtirish ishlarini amalga oshiradi: kimlarni chaqirish kerakligi, qo'shimcha dalillar talab etishi yoki etmasligi, qaysi huquqiy masalalar bahsli ekanligi kabi jihatlar aniq ko'rsatib o'tiladi. Bu esa keyinchalik sudyalarning vaqtidan tejash, keraksiz kechiktirishlarni kamaytiradi.

Ma'muriy sudlar ommaviy-huquqiy nizolarni, ya'ni fuqaro yoki tadbirkor bilan davlat organi o'rtasidagi bahslarni hal qiluvchi organdir. Bunday nizolarda vaqt omili juda muhim, zero buzilgan huquqni o'z vaqtida tiklash adolat samaradorligining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi [14]. Dastlabki eshituv instituti ommaviy-huquqiy nizolarni tezkor hal etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Birinchisi navbatda, mazkur institut ish boshlanishidan 20 kun ichida dastlabki qaror qabul qilish mexanizmini joriy etdi. Demak, fuqaro ariza bergandan keyin uzog'i bilan uch hafta ichida sudya ishni dastlabki tarzda ko'rib chiqib, uning keyingi taqdiriga doir qarorni (qabul qilish yoki qaytarish) chiqaradi. Bu ma'muriy odil sudlov tizimida yangicha tezkorlik mexanizmidir. Amalda esa arizani (shikoyatni) ish yuritishga qabul qilish haqida, qabul qilishni rad etish, qaytarish yoki sudga taalluqliligiga ko'ra boshqa sudga o'tkazish, ishni sud muhokamasiga tayyorlash to'g'risida masalalarni hal etishga bir necha oy vaqt o'tishi mumkin edi. Yangi qonun talabiga ko'ra, qonun sudyadan ma'lum muddatda albatta dastlabki eshituv o'tkazishni talab qilmoqda, shu orqali fuqarolarning sudga murojaati "o'z vaqtida ko'rilmay qolib ketishi" xavfi kamayadi.

Ikkinchidan, dastlabki eshituv nizoning tezroq hal bo'lishiga zamin yaratadi, chunki taraflar uchun mojaroni sud muhokamasigacha hal etish imkoniyatlarini ham ko'rib chiqadi. Ma'muriy nizolarda bunday yarashuv yoki alternativ yechim kam uchrash mumkin, ammo ba'zi holatlarda

davlat organi fuqaro arizasining asosligini ko'rib, avvalgi qarorini ixtiyoriy ravishda bekor qilishi yoki taraflar murosa yo'liga o'tishi ehtimoldan holi emas. Dastlabki eshituv mana shu imkoniyatni ham qo'ldan boy bermaydi, agar murosa uchun asos bo'lsa, taraflar o'zaro kelishib, nizoni tezroq yakunlashlari mumkin. Albatta, bunday yarashuv har doim ham mavjud emas, lekin dastlabki eshituv kamida shunday ehtimolni baholab ko'rish imkonini beradi. Buning pirovardida vaqt va resurslarni tejaydi, ommaviy nizolarni chuqurlashib ketmasdan hal etishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, dastlabki eshituv asosiy muhokamaga katta tayyorgarlik bilan kirish imkonini beradi, bu esa murojaat qilgan shaxs uchun adolatning tezroq qaror topishiga olib keladi. Masalan, dastlabki bosqichda sudya ish bo'yicha barcha dalillar yig'ilganini aniqladi deylik, bunda u asosiy sud majlisini tayinlab, ishni tez fursatlarda hal qilishga kirishadi. Aksincha, agar qandaydir qo'shimcha ma'lumot yoki ekspert xulosasi kerak bo'lsa, dastlabki bosqichning o'zida bu haqda qaror chiqarib, muddat belgilab beradi. Shu bilan, keyingi asosiy muhokama vaqtini cho'zishga ehtiyoj qolmaydi.

Nihoyat, tezkor hal etish faqat muddat masalasi emas, balki qarorning hayotga tatbiq etilishidir. Dastlabki eshituvda ishni to'liq yoritish va taraflarning barcha dalillari tinglangani bois, sudning keyingi hal qiluv qarori mustahkam asoslangan va bajarilishi osonroq bo'ladi. Davlat organi vakili dastlabki bosqichdanoq ishlarda ishtirok etgani sababli, sud qarori qabul qilinganda unga nisbatan hurmat bilan qarash va ixtiyoriy ijro etish ehtimoli ortadi. Shu ma'noda, dastlabki eshituv ommaviy-huquqiy nizolarning amalda tezkor yechim topishiga, ya'ni qaror chiqqach ham tez ijro etilishiga ko'maklashishi mumkin.

Protsessual adolat deganda, sud jarayonining har bir qatnashchisi uchun xolis va qonuniy tartib-taomillar ta'minlanishi, birortasining protsessual huquqlari poymol etilmasligi tushuniladi [14]. Dastlabki eshituv ana shu protsessual adolatni ta'minlash vositalaridan biri sifatida ko'riladi. Birinchi navbatda, u har ikki tarafni eshitish va fikrini inobatga olish prinsipini to'liq amalga oshiradi. Taraflarni dastlabki bosqichdagina emas, balki butun jarayon davomida tinglash – odil sudlovning negizidir. Dastlabki eshituvda esa buning uchun maxsus vaqt ajratilgan bo'lib, arizachi talabi bayon qilinadi, javobgar e'tirozi eshitiladi, hatto uchinchi shaxslar bor bo'lsa, ularning ham munosabati aniqlanadi. Natijada, asosiy sud muhokamasigacha kimning qanday pozitsiyada ekani oydinlashadi. Sudyaning o'zi ham protsessual adolat qoidalariga rioya etib, barchaga teng imkoniyat bergan holda ishni ko'rib borishi lozim. Dastlabki eshituv bu ishda taraflarga yengillik beradi, zero har bir tarafga oid protsessual qarorlarni (arizani qabul qilish, kimni jalb etish, qanday tartibda ko'rish kabi) birmabir qabul qilish imkonini beradi.

Dastlabki eshituv noqonuniy dalillar yoki protsedura buzilishlarini barvaqt aniqlab, adolatsiz qaror chiqishining oldini oladi. Masalan, agar ishda qandaydir dalil qonunga xilof yo'l bilan olingan bo'lsa yoki taraflardan biri protsessual muddatni o'tkazib yuborgan bo'lsa, bu holatni sud asosiy muhokamagacha aniqlaydi va tegishli tartibda huquqiy baho beradi. Rossiya tajribasida sudya dastlabki bosqichdayoq ariza muddati o'tkazilgan bo'lsa va uzrli sabablar bo'lmasa, arizani qondirmaslik haqida qaror chiqarishi mumkinligi belgilangan, zero bunday holda ishning mohiyatini ko'rib chiqishning o'zi qonunga zid hisoblanadi [11]. O'zbekiston ma'muriy protsessual qonunchiligida bevosita bunday qoida nazarda tutilmagan bo'lsa-da, umumiy qoidalarga asosan arizani qaytarish yoki ishni harakatsiz qoldirish holatlari (masalan, muddat o'tgan bo'lsa) dastlabki eshituv yakunida hal qilinadi. Bu esa kelgusida adolatsiz yoxud haqiqatdan yiroq qaror qabul qilinishiga yo'l qo'ymaydi yoki ma'muriy ish bir texnik sabab tufayli qanoatlantirilmaydigan bo'lsa, bu haqda dastlabki bosqichning o'zida aniqlashtiriladi.

Dastlabki eshituv jarayonining o'zi ham adolatli tarzda tashkil etilishi lozim. Ya'ni, sud mazkur bosqichni ham xolis va beg'araz o'tkazishi, faqat qonun talablari doirasida harakat qilib, taraflar haq-huquqlarini hurmat qilishi shart. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, ma'muriy sud ishlarini

yuritish sohasida xalqaro andozalar protsessual adolatga katta e'tibor qaratiladi, ayniqsa fuqaro va davlat o'rtasidagi bahslarda fuqaroning huquqiy kafolatlarini ta'minlash, tenglik va yon bosmaslik tamoyillariga rioya qilish talab etiladi. Dastlabki eshituv ana shu talablarni amaliy jihatdan ta'minlash vositasi bo'lib, sudyaga ham, taraflarga ham adolatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Dastlabki eshituv instituti dunyoning ko'plab mamlakatlari sud tizimida turli shakllarda mavjud. Mazkur institut asosan kontinental (Yevropa) huquq tizimida keng tarqalgan bo'lib, fuqarolik va ma'muriy sud ishlarida alohida tayyorlov bosqichi sifatida namoyon bo'ladi. Rossiyaning ma'muriy protsessual qonunchiligida dastlabki sud majlisi instituti muvaffaqiyatli qo'llanilib kelinmoqda. Uning samarasini qonun chiqaruvchi ham, oliy sud organlari ham tan olgan.

Shuningdek, Germaniya, Fransiya kabi rivojlangan huquq tizimlarida ham sudga tayyorgarlik ko'rish instituti sifatida qaraladi. Germaniya ma'muriy sudlari [15] amaliyotida to'g'ridan to'g'ri "dastlabki eshituv" deb atalmasa-da, sudyalari ish tayyorgarligi davomida taraflar bilan aloqa qilib, zarur hollarda ilk eshituv muhokamasi o'tkaziladi va so'ngra asosiy sud majlisi uchun sanani belgilaydilar. Fransiya ma'muriy adliyasida esa sudya lozim topsa, ishni soddalashtirilgan tartibda ko'rish uchun alohida hujjat almashinuvi va tayyorlov bosqichi sifatida o'tkazishi mumkin [16]. Anglo-amerika (Common Law) tizimida ma'muriy sud jarayonlari boshqacha tuzilgan bo'lsa-da, u yerda ham pre-trial hearing yoki preliminary conference kabi mexanizmlar mavjud bo'lib, ular sud ishini boshlashdan oldin taraflarning pozitsiyalarini eshitish va jarayonni tezlashtirishga xizmat qiladi. Demak, dastlabki eshituv instituti jahon tajribasida o'zini oqlagan va turli shakllarda qo'llanilayotgan tamoyildir.

O'zbekistonda bu institutni joriy etish ham milliy huquqni xorijiy ilg'or amaliyotga uyg'unlashtirish harakati sifatida baholanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini sud orqali himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-33-sonli Qarorida [5] "ma'muriy sud ishlarini yuritishga xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribaga muvofiq yangi institut va tartiblarni joriy etish" zarurligi alohida ta'kidlangan.

Demak, qiyosiy huquqiy tahlil shuni ko'rsatadiki, dastlabki eshituv O'zbekiston ma'muriy yustitsiyasiga kirib kelishi orqali xalqaro maydonda qabul qilingan protsessual adolat va samaradorlik me'yorlariga yana bir qadam yaqinlashamiz.

Shu maqsadda MSYUtKda "Ma'muriy ish bo'yicha dastlabki eshituv" deb nomlangan yangi bob kiritilishi lozim. Ushbu bobda ma'muriy ish bo'yicha dastlabki eshituvning o'tkazish va umumiy qoidalar, ma'muriy ish bo'yicha dastlabki eshituvni o'tkazish asoslari ko'rsatilishi maqsadga muvofiq.

Ma'muriy ish bo'yicha dastlabki eshituvni o'tkazish asoslari sifatida MSYUtKda quyidagi mazmunda yangi modda bilan to'ldirishni taklif etamiz: "Sud quyidagi holatlar mavjud bo'lganda taraflar iltimosnomasiga binoan yoki o'z tashabbusi bilan dastlabki eshituv o'tkazishi mumkin:

ariza mazmunini aniqlashtirish maqsadida nizo predmetini to'g'ri belgilash, arizachi talabi doirasini va uni asoslash uchun keltirilgan holatlarni aniqlashtirish;

arizada mazkur kodeksda talab qilingan ma'lumotlar yoki hujjatlarning yetishmasligi, xato yoki boshqa kamchiliklar mavjudligi, ularni to'ldirish yoki tuzatish;

ariza talablarini asoslash uchun zarur dalillarni to'plash yoki taqdim etish;

nizoli huquqiy munosabatga daxldor bo'lmagan tarafni almashtirish, qo'shimcha javobgar yoki uchinchi shaxslarni ishga jalb etish;

taraflar tomonidan ishni sud muhokamasiga tayinlashdan oldin hal qilinishi lozim bo'lgan protsessual harakatlar bo'yicha iltimosnomalarni ko'rib chiqish;

ma'muriy ish bo'yicha ishni tugatish;

ma'muriy ish bo'yicha ishni to'xtatish".

Bundan tashqari, dastlabki eshituvni o'tkazish muddatlari, dastlabki eshituvni o'tkazish tartibi, dastlabki eshituv natijasida chiqariladigan sud ajrimi, sud ajrimi ustidan shikoyat berish tartibining protsessual jihatlarini ko'rsatishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, ma'muriy sud ishlarini yuritishda joriy etilayotgan dastlabki eshituv instituti fuqarolarning huquq va manfaatlarini sud orqali himoya qilish mexanizmlarini yangi bosqichga olib chiqadi.

Ushbu institut sud jarayoniga ko'p qirrali ijobiy ta'sir ko'rsatadi: bir tomondan, ishlar ko'rib chiqilishining tezkorligi va sifati oshadi, sudlarning ish yuklamasi kamayadi; ikkinchi tomondan, fuqarolar uchun huquqiy kafolatlar mustahkamlanadi, choralar o'z vaqtida ko'riladi va har bir taraf to'laqonli ravishda eshitaladi.

Dastlabki eshituv hisobga olinmagan hollarda kuzatilishi mumkin bo'lgan ko'plab muammolar masalan, ishni kechikishi, taraflarning tayyor emasligi, protsessual xatolar tufayli qarorlarning bekor qilinishi oldindan hal etilishi mumkin bo'ladi. Bu esa protsessual adolatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ma'muriy yustitsiya sohasidagi ushbu yangilik fuqarolarning davlat organlari ustidan sudga murojaat qilish huquqining amaliy qiymatini oshiradi. Shu ma'noda, dastlabki eshituv instituti ma'muriy sudlar faoliyati samaradorligi va adolatlilikini yanada yuksaltirishga qaratilgan ilg'or qadamdir. Mazkur institut sud muhokamasi madaniyatini yuksaltirish, fuqarolarning huquqiy kafolatlarini kuchaytirish va ommaviy-huquqiy nizolarni odilona hal etishda muhim o'rin tutadi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son / <https://lex.uz/docs/6445145>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktyabrdagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4850-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 43-son, 497-modda / <https://lex.uz/docs/3050491>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son / <https://lex.uz/docs/5841063>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi "Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3723-sonli Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.05.2018 y., 07/18/3723/1225-son / <https://lex.uz/docs/3735818>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini sud orqali himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-33-sonli Qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.01.2025 y., 07/25/33/0091-son / <https://lex.uz/docs/73507946>.
6. Верещагина М.А. "Процессуальный порядок признания доказательств недопустимыми в ходе предварительного слушания". России. Дис. ... канд. юр. наук. - Челябинск, 2008. - С. 93.
7. Азаров В.А., Таричко И.Ю. Доброкачественность доказательств как предмет судебной оценки // Проблемы состязательного правосудия: сб. науч. тр. / под ред. В.Л. Будникова; ВолГУ, Урюп. фил.; редкол.: В.Л. Будников (отв. ред.) [и др.]. - Волгоград: Из-во ВолГУ, 2005. - С. 114.
8. Закирова Д.И. Предварительное судебное заседание // Законы России: опыт, анализ, практика. 2008. № 9. С. 17-21.
9. Плешанов А.Г. Воплощение основных принципов цивилистического процесса в нормах института подготовки дела к судебному разбирательству // Современная доктрина гражданского арбитражного процесса и исполнительного производства: теория и практика: Сб. науч. статей // Краснодар, 2004. С. 324, 331
10. Пўлатов Б.Х. Теоретические и практические проблемы и пути совершенствования законодательного регулирования участия прокурора при рассмотрении уголовных дел в судах: Автореф. дисс... докт. юрид. наук. Т., Академия МВД РУз., 2002. —С. 12. / Inog'omjonova Z.F. "Jinoyat-protsessida sud nazorati va uni amalga oshirish muammolari". Yu.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 2006-yil. —B.33. / Dovudova D.S. "Dastlabki

eshituvning o'ziga xos xususiyatlari va muammolari". maqola, "Odillik mezoni" ilmiy-amaliy, huquqiy jurnal, №8-son, 2022-yil. / Esanaliyev S.N. Jinoyat protsessida dastlabki eshituv institutini takomillashtirish masalalari. yuridik fan.... falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi. 2025-yil. – B. 25.

11. Кодекс административного судопроизводства Российской Федерации от 8 марта 2015 г. N 21-ФЗ <https://legalacts.ru/kodeks/kodeks-administrativnogo-sudoproizvodstva-rossiiskoi-federatsii-ot-08032015>

12. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.01.2018 y. <https://lex.uz/docs/3527353>

13. Esanaliyev S.N. Jinoyat protsessida dastlabki eshituv institutini takomillashtirish masalalari. yuridik fan.... falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi. 2025-yil. – B. 31.

14. Xojiyev E., Shayzakov Sh. O'zbekistonda ma'muriy sud ishlarini yuritishning o'ziga xos xususiyatlari. O'quv-amaliy qo'llanma. – Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi, 2020 y., 18-23 b.

15. Verwaltungsgerichtsordnung (VwGO) https://www.gesetze-im-internet.de/vwgo/__40.html.

16. Code de justice administrative / Dernière modification: 2025-08-02 Edition: 2025-08-28 1279 articles avec 1457 liens 175 références externs. file:///C:/Users/Hp%20Envy/Desktop/Code%20de%20justice%20administrative. pdf

YURIST AXBOROTNOMASI

5-SON, 7-JILD

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 5, ВЫПУСК 7

LAWYER HERALD

VOLUME 7, ISSUE 5

ISSN 2181-9416

DOI JURNAL: 10.26739/2181-9416